

ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR VA ULARNING INSON HAYOTIGA TA’SIRI

SamDCHTI o’qituvchisi Maxmudova Kumushoy Najmiddin qizi

SamDCHTI filologiya va tillarni o’qitish: ingliz tili 1-bosqich 2416-guruh talabasi

Sulaymonova Nilufar Ravshan qizi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada zamonaviy texnologiyalarning rivojlanishi, insonlarning hayotiga ko’rsatayotgan ta’siri, ishsizlikning oldini olish bo’yicha ko’rsatayotgan ishlari, turli xil zamonaviy kashfiyotlari bilan insonlarga foydasi tegayotganligi va shu qatorda salbiy taraflari ham aytib o’tilgan.*

Kalit so’zlar: *axborot texnologiyalari, gadjetlar, sun’iy intellekt, masofaviy ish, texnologiyaning tibbiyotga ta’siri, virtual olam.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается развитие современных технологий, их влияние на жизнь людей, работа по предотвращению безработицы, польза, которую они приносят людям благодаря различным современным открытиям, а также упоминаются их отрицательные стороны.*

Ключевые слова: *информационные технологии, гаджеты, искусственный интеллект, удалённая работа, влияние технологий на медицину, виртуальный мир.*

Annotation: *This article discusses the development of modern technologies, their impact on human life, efforts to prevent unemployment, the benefits they bring to people through various modern innovations, as well as their negative aspects.*

Keywords: *information technology, gadgets, artificial intelligence, remote work, the impact of technology on medicine, virtual world.*

KIRISH

Ta’kidlab o’tish joizki, hozirgi kunga kelib kunlik hayotimiz axborot texnologiyalari, sun’iy intellekt va umumiy texnologiya tushunchasiga o’ralashib qolgan. Yildan yilga olimlarning boshlagan ishlari muvaffaqiyatli yakun topmoqda. Shu qatorda zamonaviy texnologiyalar ham. E’tiborimizni tortadigan jihati shundaki, ba’zi bir kishilar ushbu texnologiyalardan to’g’ri maqsadda foydalanib, ayrim kishilar esa be’mani narsalar uchun vaqtini bekorga sarflamoqda. Bularning barchasi foydalanuvchining qay maqsadda foydalanishiga bog’liq. Misol uchun: gadjetlar orqali ko’plab foydali ishlar qilib, daromadga chiqqan kishilarni ko’rishimiz mumkin. Aksincha, virtual olamga sho’ng’ib, internetda aldanib, yomon yo’lga kirib qolganlarni ham kuzatishimiz ajablanarli emas.

Asosiy qism



E'tibor beradigan bo'lsak zamonaviy texnologiyalarning kirib kelishi bilan hayotimiz 180°ga o'zgardi, ya'ni ta'lim, sog'liqni saqlash tashkiloti, ishsizlikning oldini olish kabi muammolarni yetarlicha bartaraf qildi. Ta'limda qanday o'zgarishlar kuzatildi? Internet texnologiyalari ta'lim sohasida inqilobiy o'garishlar olib keldi. Yoshlar endi dunyo miqyosidagi axborot manbalariga to'g'ridan-to'g'ri kirish imkoniyatiga ega bo'lib, bilim olishning yangi yo'llarini qidirish imkoniga ega bo'ldi. Buning natijasida ta'lim jarayoni dinamik, interaktiv va samarali bo'lib qolmoqda. Globallashuv ta'lim tizimida ham o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Oliy ta'lim muassasalari orasidagi hamkorlik, onlayn ta'lim platformalari va xalqaro programma almashinuvi yoshlarning bilim olish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Internetdagi keng axborot resurslari yoshlarga mustaqil ravishda tahlil qilish va bilim olish imkoniyatini beradi. Ularning turli manbalardan olingan ma'lumotlarni to'plab, o'z fikrlarini shakllantirishlari uchun platformalar mavjud. Coursera, edX, Khan Academy kabi onlayn platformalar yoshlarga dunyo miqyosidagi eng nufuzli universitetlar va olimlardan ta'lim olish imkonini yaratdi. Interaktiv ta'lim vositalari, onlayn forumlar va diskussiyalar yoshlarning tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Ular savol berish, fikr almashish va turli nuqtai nazarlarni ko'rib chiqishga asoslangan muhitda o'rganadilar.[1] Eng ko'zga tashlanadigan jihatlaridan biri shundan iboratki, xoh talaba bo'lsin xoh o'qituvchi, istagan kishi istagan joyida joyida ta'lim ola oladi, gadjetlar orqali elektron kitoblarni bemalol topib o'qiydi. Bundan tashqari ko'plab foydali taraflari mavjud. Tibbiyot sohasiga to'xtaladigan bo'lsak, bu sohada ham o'z natijalarini ko'rsatib kelmoqda. Kompyuterlashtirilgan texnika tibbiyot xodimlariga bilimlarini oshirish, qo'llash, institutda ta'lim olgan nazariy ilmlarini amaliyotda sinab ko'rish imkoniyatini taqdim etmoqda. Shuningdek, zamonaviy tibbiyotchilar kompyuter vositasida epidemik kasalliklarning tarqalish tezligini ko'rsatuvchi xarita yaratmoqdalar. Masofaviy tashxislash dasturlari esa shifokor va bemor aloqalarida uzviylik kasb etdi. Jumladan, tibbiyotning stomatologiya yo'nalishiga ham axborot texnologiyalari keng kirib kelib, tishlarni davolash va protezlash kompyuter yordamida bajarilmoqda. Tish va prodontni raqamli rentgenografiya qilish amaliyoti shifokorga va bemorga osonlik tug'dirdi, tishholatidan to'liq xabardor bo'lib, to'g'ri davolashga yetakladi. Dental videokameralar muolaja qay darajada ta'sir qilayotganini kuzatib borish imkonini beradi.[2] Albatta bular qaysidir tarafdin qiziq tuyulishi mumkin ammo bularning barchasi zamonaviy texnologiyalar orqali amalga oshirilmoqda. Shu ketishda davom etadigan bo'lsa nechanchidir asrlarga kelib barcha kasalliklarga davo topilib, hech kim kasallikdan aziyat chekmaydi. Hozirgi kunda aholining 60%i masofaviy ishlaydi ya'ni texnologiyaning rivojlanganligi va internet takomillashib ketganligi uchun, bu boshqa ishlarga qaraganda ancha oson bo'lib qoldi. Zamonaviy dunyoda texnologiyaning rivojlanishi bilan mehnat dunyosida bandlikning yangi masofaviy ko'rinishi shakllandi. Pandemiya bilan bog'liq og'ir



global vaziyat mehnat bozori formatiga katta ta'sir ko'rsatdi va mavjud me'yoriy-huquqiy hujjatlarning beqaror hamda himoyalanmagan sohalarini ochib berdi. Mehnat bozorida tartibsizliklar masofadan ishlash choralarini o'zgartirish zaruriyatini keltirib chiqardi. Qo'shma Shtatlarda masofadan ishlovchi fuqarolarning ulushi 37 foiz, Yevropa Ittifoqida esa 17 foiz tashkil qiladi. Mutaxassislarining ta'kidlashicha, hozirgi vaqtda mehnat bozorida masofaviy ish formatini yo'qotish jarayoni kuzatilmoqda. Bu ish jarayoni ustidan nazoratning yo'qligi, mehnat va dam olish tartibiga rioya qilmaslik ehtimoli, ish tezligining pastligi, shuningdek, belgilangan vazifalarning o'z vaqtida bajarmasligi bilan izohlanadi.[3] Ko'rib turibsizki, zamonaviy texnologiyalar hayotimizni yetarli darajada osonlashtirdi. Yana bir kashfiyoti-sun'iy intellekt. Kundan kunga ma'lumotlar bazasi kengayib, bizni qiynagan savollarga javob bermoqda. Qaysidir ma'noda to'liq rivojlanmagan, biroq kelajakda xatolarsiz ishlashiga umid qilyapmiz. Demak, XXI asr texnologiya asrida bizga shuncha qulayliklar yaratilibdi. Har doim yaxshi narsaning yomon taraflari bo'lganidek, internet tushunchasining ham o'ziga yetarli darajada salbiy taraflari bor. Aytishimiz mumkinki, hamma birdek internetdan to'g'ri maqsadda foydalanmaydi. Aholida, ayniqsa, yoshlarda axborot iste'moli madaniyatining pastligi, turli xabarlar oqimidan kerakligini ajratib olishda bilim, malaka va ko'nikmaning yetishmasligi ba'zilarining g'arazli kimsa va oqimlar ta'siriga tushib qolishlariga, internet qaramligi kasalligiga yo'liqishlariga sabab bo'lmoqda. Texnologiya eng rivojlangan davlatlardan bo'lmish Xitoy Xalq Respublikasida internetga qaramlik kasallik sifatida e'tirof etilganligi va uni davolovchi maxsus shifoxonalar tashkil etilganligi buning yorqin isboti bo'la oladi. Yoshlarning juda ko'pchiligining internetga qaramligi butunjahon dunyoda global muammo bo'lib ulgurgan. Bu esa butunjahon dunyo kelajagi uchun fojea, chunki internetga qaram bo'lgan inson o'z qobig'iga o'ralashib qoladi va atrof olamdan bexabar qoladi, virtual-internet olami ularni mas'uliyatsiz, dangasa va loqayd qilib qo'yishidan tashqari sog'lig'iga va ruhiyatiga ham anchagina zarari bor. Agar insonlar, ayniqsa, yoshlar zamonaviy kompyuter o'yinlariga haddan tashqari berilib ketgan bo'lsa, ularni o'ynayotganda u qahramonlar roliga kirishib ketadi, haqiqiy vaqt va hayot tushunchasini yo'qotadi. Masalan, inson o'zini o'rnida tasavvur qilayotgan o'yin qahramoni halok bo'lsa, hatto, bu inson ham o'zini o'ldirishi mumkin. Internetning bunday salbiy tomonlari bo'lsa-da zamonaviy texnologiyalarning foydasi albatta ko'proq, bizning hayotimizda va undan unumli foydalanish o'z qo'limizda.[4]

XULOSA

Xulosa qilib aytish mumkinki, texnologiyalarning rivojlanishi ko'proq foydali taraflarimizga xizmat qilmoqda. Dastlab, texnologiyalar taraqqiyotining ijobiy jihatlari, jumladan, aloqa imkoniyatlarining kengayishi, ta'lim jarayonlaridagi yutuqlar, ishsizlikning oldini olish va sog'liqni saqlash sohasidagi yutuqlari ko'zga tashlanadi. Ammo tanganing ikki tarafi bo'lgani kabi texnologiyalarning ham yaxshi yomon tarafi bor. Demak, zamonaviy



texnologiyalardan foydalanayotganda e'tiborli bo'lish va xavfsizlik doirasida ish qilish talab qilinadi. Texnologiya asri bizni o'z-o'zidan extiyotkorlikka chorlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2024, ISSN 2181-7324
2. Международный научный журнал «Новости образования: исследование в XXI веке» No 13(100), часть1 Сентябрь 2023
3. <https://gov.uz/oz/bv/news/view/3219>
4. SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL ISSN: 2181-3337

